



NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

NAVOIY VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot
2025- yil yanvar*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 79-223-50-43*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar oyi, foizda)




2025- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 895 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 7 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 888 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar mlrd. so'mda)



So'nggi 5 yillik (2021- 2025- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 122,8 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2024- 2025- yillar)



2025- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati **111,4 %** ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2025- yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 903,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 111,4 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 82,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 122,2%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 821,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,4%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 53,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 114,0 %) tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2025- yil yanvar oyi)

	Jami, mlrd. so'm *	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	903,6	111,4
Navoiy sh.	268,3	116,2
Zarafshon sh.	94,3	109,1
G'ozg'on sh. <i>tumanlar</i>	1,1	108,8
Konimex	30,1	109,4
Qiziltepa	99,2	107,8
Navbahor	48,2	105,6
Karmana	131,2	119,1
Nurota	45,7	105,9
Tomdi	8,1	115,5
Uchquduq	40,1	104,5
Xatirchi	101,4	105,3

***) Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda**

2025- yilning yanvar oyida 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Karmana (119,1 %) tumani, Navoiy (116,2 %) shahrida Tomdi (115,5 %) va Konimex (109,4 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 30,9 % bilan 268,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, G'ozg'on shahri 0,1 % bilan 1,1 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda oʻsish kuzatildi.



Hajmi, mlrd. soʻm

Navoiy sh.	268,3
Karmana t.	131,2
Xatirchi t.	101,4
Qiziltepa t.	99,2
Zarafshon sh.	94,3
Navbahor t.	48,2
Nurota t.	45,7
Uchquduq t.	40,1
Konimex t.	30,1
Tomdi t.	8,1
G'ozg'on sh.	1,1



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2025- yilning yanvar oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 821,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 10,4 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,9 % ni tashkil etdi.

108,6 %

G'ozg'on sh.

109,1 %

Zarafshon sh.

110,5 %

Konimex t.

112,2 %

Navoiy sh.

114,9 %

Tomdi t.

119,1 %

Karmana t.

Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 122,2 % ga o'sdi va 82,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,1 % ulushiga to'g'ri keldi.

108,8 %

Zarafshon sh.

116,5 %

G'ozg'on sh.

131,5 %

Nurota t.

140,2 %

Navoiy sh.

153,2 %


Uchquduq t.

164,5 %

Tomdi t.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



● Yirik korxonalar

● Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Karmana (100,0 %), Uchquduq (98,9 %) va Tomdi (98,3 %) tumanlar yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 9,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy (17,3 %), Zarafshon (14,0 %) shaharlarida kuzatildi.



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)

Navoiy sh.

1 637,1

Zarafshon sh.

1 054,9

Uchquduq t.

1 016,3

Karmana t.

934,8

Konimex t.

807,9

Qiziltepa t.

607,6

Tomdi t.

524,1

Nurota t.

506,7

Xatirchi t.

471,9

Navbahor t.


396,3

G'ozg'on sh.

117,5

2025- yilning yanvar oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 832,8 ming so'm (2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 109,3 %) ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Navoiy shahri (1 637,1 ming so'm), Zarafshon shahri (1 054,9 ming so'm) va Uchquduq tumani (1 016,3 ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.




Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Izoh: Navbahor, Tomdi, Uchquduq tumanlarida va Navoiy, Zarafshon shaharlarida chorva bozori mavjud emas.

G'ozg'on shahrida dehqon va chorva bozori mavjud emas.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar), foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2025- yil yanvar)

	Jami, mlrd. so'm	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	53,0	114,0
Navoiy sh.	9,5	98,3
Zarafshon sh.	1,6	160,5
G'ozg'on sh.	-	-
<i>tumanlar</i>		
Konimex	4,3	117,1
Qiziltepa	4,6	89,5
Navbahor	0,5	125,7
Karmana	16,5	110,6
Nurota	4,1	108,5
Tomdi	0,4	153,9
Uchquduq	1,2	134,6
Xatirchi	10,3	152,1


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda (2025- yil yanvar)















Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2025- yil yanvar)



Navoiy viloyati bo'yicha 2025- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 53,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar oyiga nisbatan 114,0 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 25,0 mlrd. so'mni (119,7 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 28,0 mlrd. so'mni tashkil etdi (109,3 %).












2025-yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 25,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (13,1 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>13,1 mlrd. so'm</p>  <p>52,2 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>2,8 mlrd. so'm</p>  <p>11,5 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>2,1 mlrd. so'm</p>  <p>8,2 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>1,0 mlrd. so'm</p>  <p>4,0 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>1,2 mlrd. so'm</p>  <p>4,6 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>0,8 mlrd. so'm</p>  <p>3,0 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>0,8 mlrd. so'm</p>  <p>3,1 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>1,2 mlrd. so'm</p>  <p>5,0 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>0,3 mlrd. so'm</p>  <p>1,2 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>1,3 mlrd. so'm</p>  <p>5,4</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>0,4 mlrd. so'm</p>  <p>1,8 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> 

2025- yilning yanvar oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 28,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 22,3 mlrd. so'm, qo'y va echkilar – 5,3 mlrd. so'mni, otlar – 0,1 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,1 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>12,8 mlrd. so'm</p> <p> 45,8 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>4,7 mlrd. so'm</p> <p> 17,3 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>4,8 mlrd. so'm</p> <p> 16,8 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>3,9 mlrd. so'm</p> <p> 13,9 %</p>	<p>Otlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p> <p> 0,5 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>1,4 mlrd. so'm</p> <p> 4,9 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p> <p> 0,4 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p> <p> 0,2 %</p>	<p>Quyonglar</p> <p>0,04 mlrd. so'm</p> <p> 0,1 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,02 mlrd. so'm</p> <p> 0,1 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1-fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 006 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 004 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar)

	Jami mlrd. so'm *	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	336,5	108,8
Navoiy sh.	16,0	123,8
Zarafshon sh.	7,2	119,9
G'ozg'on sh. <i>tumanlar</i>	0,02	108,6
Konimex	0,7	111,4
Qiziltepa	2,3	111,7
Navbahor	2,5	56,9
Karmana	6,1	110,4
Nurota	0,7	102,6
Tomdi	0,2	106,4
Uchquduq	2,2	106,3
Xatirchi	3,1	105,4

**) Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda*

2025- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 336,5 mlrd. so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 108,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 90,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd. so‘m	Ulushi, foizda
Navoiy viloyati	202,8	100,0
Navoiy sh.	78,6	38,8
Zarafshon sh.	1,3	0,6
G‘ozg‘on sh.	-	-
<i>tumanlar</i>		
Konimex	0,8	0,4
Qiziltepa	13,3	6,6
Navbahor	1,3	0,6
Karmana	103,3	51,0
Nurota	0,8	0,4
Tomdi	0,0	0,0
Uchquduq	1,1	0,5
Xatirchi	2,3	1,1


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Karmana tumani (103,3 mlrd. so‘m), Navoiy shahri (78,6 mlrd. so‘m) va Qiziltepa tumani (13,3 mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2025- yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 202,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 61,6 mlrd. so‘m, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi 141,2 mlrd. so‘m (o‘sish sur‘ati 65,8 %)ni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘atlari, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda




Viloyat bo‘yicha 2025 - yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 314,1 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 19,6 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 242,8 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 98,0 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 77,3 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o‘shish sur‘atlari (2025- yil yanvar)

	Jami mlrd. so‘m *	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	314,1	119,6
Navoiy sh.	149,2	144,5
Zarafshon sh.	11,8	99,0
G‘ozg‘on sh.	0,02	97,4
<i>tumanlar</i>		
Konimex	1,0	99,4
Qiziltepa	26,3	117,6
Navbahor	7,9	90,5
Karmana	57,5	100,3
Nurota	4,1	99,5
Tomdi	0,4	99,7
Uchquduq	10,1	95,0
Xatirchi	11,2	97,5

**) Yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda*

2025- yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 435 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 430 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o‘shish sur‘atiga ega hududlar Navoiy shahri (144,5 %), Qiziltepa (117,6 %), Karmana (100,3 %) tumanlarida kuzatildi.